

O'zbek va ingliz tilida frazeologizmlarning qo'llanilishi

Yangibayeva Nazira Gulmanovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Matmuratova Fauziya

Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, frazeologiya, ekvivalent, ibora, o'zbek tili, ingliz tili, so'z birikmasi, dunyo tillari, og'zaki nutq, badiiy asar.

Ключевые слова: Языкознание, фразеология, эквивалент, словосочетание, узбекский язык, английский язык, фразеология, языки мира, устная речь, художественное произведение.

Keywords: Linguistics, phraseology, equivalent, phrase, Uzbek language, English language, phraseology, languages of the world, oral speech, work of art.

Annotatsiya

Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologiya bo'limi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, ikki tildagi frazeologik birliklarning o'ziga xos o'xshashliklari va tarjimadagi farqli jihatlari yoritib berilgan.

Аннотация: В статье представлена информация о разделе фразеологии на узбекском и английском языках. Также выделяются конкретные сходства и различия в переводе фразеологизмов двух языков.

Annotation: The article provides information about the section of phraseology in Uzbek and English. Specific similarities and differences in the translation of phraseological units of the two languages are also highlighted.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Bugungi kunga kelib zamonaviy tilshunoslikda frazeologiya sohasi alohida o'ringa ega. Bu soha keyingi paytlarda rivojlanib, ko'plab ilmiy ishlar olib borilmoqda. Frazeologiya iboralar haqidagi bilimdir. **Iboralar** — bular ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan barqaror (turg'un) bog'lanmalarining umumiy nomi. Bu turdagi so'z birikmalari deyarli barcha rivojlangan dunyo tillarida bor bo'lib, asrlar davomida rivojlanib kelmoqda. Shulardan men ingliz tilidagi frazeologizmlarni va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentini o'rganishni maqul topdim. Bu ikkala til ham juda boy til hisoblanganligi sababli, turg'un so'zlar bog'lanmalaridan og'zaki nutqda, ayniqsa badiiy asarlarda muayyan ravishda qo'llaniladi.

Ular bir tildan ikkinchi tilga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinmaydi, balki o'sha tildagi ekvivalenti olinadi. Bunga sabab har bir xalqning urf-odatları, qadriyatları va an'analari turlicha bo'lganligidir. Masalan:

bite off more than one can chew – nonni katta tishlamoq, kuchi yetmaydigan ishga chiranmoq, behuda urinmoq, ortiqcha chiranish bel chiqarar;

a drop in the bucket- dengizdan tomchi,

it is rained cats and dogs- chelaklab quydi

Have a bee in one's bonnet – bo'lmag'ur fikrlar bilan boshini band qilmoq,

Hold one's head high – boshini baland tutmoq;

dance attendance on somebody – laganbardorlik qilmoq, biror kimsa uchun yugurmoq, kimningdir xizmatiga doim tayyor bo'lmoq,

also ran – musobaqaning omadsiz ishtirokchisi, omadsiz. Musobaqalardan keyin e'lon aytilsa *also ran* so'zlari bilan boshlangan

Maqollar ham frazeologik birikmalarga aloqador sanaladi ya'ni ular ham frazeologik birikmalarning bir turi. Ular xuddi frazeologizmlar kabi nutqqa to'g'ridan-to'g'ri olib kelinadi va tarjima jarayonida uning boshqa tildagi ekvivalenti olinadi. Masalan, no pains, no gains (og'riq yo`q – yutuq yo`q), A friend in need is a friend indeed (Muhtojlikdagi do'st – haqiqiy do'st, Do'st kulfatda bilinar).

Ekvivalentlar to'liq va qisman bo'lishi mumkin. To'liq ekvivalentlar shunday tayyor ekvivalentlarki ular o'zbek tilidagisi bilan ma'nosi, leksik tarkibi va grammatik tuzulishi bilan mos tushadi;

O't bilan o'ynashmoq – to play with fire;

Vaqtı soati yetib keldi – one's hour has sturk;

Olovsiz tutun bo'lmaydi – there is no smoke without fire;

Ariday mehnat sevar – busy as a bee;

Oltin tog' vada qilmoq – to promise wonders, to promise the moon;

O'z uying o'lan to'shaging – East or west home is best.

Birinchi qaldirg'och – the first portent;

Jo'jani kuzda sanaymiz – Don't count your chickens before the hatched.

Kimnidir qo'lida o'ynamoq – to play into smb's hands.

Avval o'yla, keyin so'yla kabi- first think, then speak

Ingliz tilida ham xuddi o'zbek tilidagidek frazeologik birliklar nutqqa tayyor shaklda kirib keladi, ularni boshqa so'z bilan almashtirib bo'lmaydi va bu nutqni yanada obrazli qilishga yordam beradi. Frazеologik birliklar nutqni yanayam chiroyli qiladi va tilni boyitadi. Ularning kelib chiqishi, tarixi, nima asosida shakllanganligi to'g'risida ko'plab ingliz, rus, o'zbek olimlar ilmiy ishlar olib borgan. Tilshunos ingliz olimi L.Graff frazeologik birikmalar va ularning uslubiy bog'lanishidagi farqini tavsiflab bergan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir til frazeologizmlar bilan boydir. Ularni kundalik hayotda qo'llash nutqimizni yanayam chiroyli va ravon qiladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan frazeologik birikmalarning tahlilidan shunday deyish mumkinki, Frazеologiyani tilshunoslikning bir bo'limi sifatida emas, mustaqil fan tariqasida o'rganilishi kerak. Frazеologik birliklarni nutqda qo'llab, ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib, to'g'ri qo'llashga alohida e'tibor zarur. Bu birliklar nutqqa yoki badiiy matnga obrazlilik baxsh etishdan tashqari tilning naqadar lug'at imkoniyatlari ko'pligini belgilab beradi.

Adabiyotlar:

1. Ginsburg R.S. A Course in Modern English Lexicology. M., 1979
2. Rahmatullayev Sh., O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, T., 1966;